



KORRUPSIYA - DAVLAT BOSHQARUVI VA JAMIYAT TANNAZZULINING ASOSI

Raximjon Baxit o'g'li Raximjonov

*Buxoro Innovatsiyalar universiteti 1-kurs Davlat boshqaruv huquqi
yo'nalishi magistranti*

ANNOTATSIYA: *Yangi O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosati darajasiga ko'tarilib ulgurdi. Korrupsiyaga qarshi kurashda barcha davlat organlari va fuqarolar birdek ma'sul ekanligini bong urilmoqda. Ammo, shunga qaramay korrupsiya illati davlat boshqaruvini yemiruvchi illat bo'lib qolmoqda. Maqolada korrupsiya o'zi nima ekanligi, korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asosi, korrupsiyaga qarshi kurashishning xorijiy tajribasi, korrupsiyani oldini olish usullari va unga qarshi kurashishga oid takliflar keltirib o'tilgan.*

АННОТАЦИЯ: *В новом Узбекистане борьба с коррупцией поднялась до уровня государственной политики. Подчеркивается, что все государственные органы и граждане несут равную ответственность в борьбе с коррупцией. Однако, несмотря на это, порок коррупции остается пороком, разрушающим государственное управление. В статье рассматривается, что такое коррупция, правовые основы борьбы с коррупцией, зарубежный опыт борьбы с коррупцией, методы предотвращения коррупции и предложения по борьбе с ней.*

ANNOTATION: *In the new Uzbekistan, the fight against corruption has risen to the level of state policy. It is emphasized that all state bodies and citizens are equally responsible in the fight against corruption. However, despite this, the vice of corruption remains a vice that destroys public administration. The article discusses what corruption is, the legal basis for the fight against corruption, foreign experience in combating corruption, methods of preventing corruption and proposals for combating it.*



Kalit soʻzlar: *korruptsiya, davlat boshqaruvida korruptsiya, huquqiy asos, Korruptsiyaga qarshi kurashuvchi organlar, xorijiy tajriba, jazo chorasi, korruptsiyaga qarshi kurashish uchun takliflar.*

Ключевые слова: *коррупция, коррупция в государственном управлении, правовая база, антикоррупционные органы, зарубежный опыт, карательные меры, предложения по борьбе с коррупцией.*

Keywords: *corruption, corruption in public administration, legal framework, anti-corruption bodies, foreign experience, punitive measures, proposals for combating corruption.*

“Barchamiz yaxshi tushunamiz, korruptsiyaga qarshi kurash jarayoni hech qachon aniq muddat bilan cheklanmaydi. Ushbu masalada faqat davlatning say-harakati bilan kutilgan natijaga erishib boʻlmaydi. Bu - butun jamiyatimizning ishi”.

Shavkat Mirziyoyev

Azaldan davlat boshqaruv tizimi yemirilishining asosiy sabablaridan biri bu korruptsiya illati hisoblanadi. Uzoqqa bormasdan Oʻzbekiston davlatchiligi tarixiga nazar soladigan boʻlsak ham qadimdan poraxoʻrlik, tanish-bilishchilik va qarindosh-urugʻchilik kabi salbiy illatlar sabab doimiy urushlar, ichki tarqoqlik va mustamlakachilikni boshdan kechirganmiz. Tarixdan toʻgʻri xulosa chiqarish lozim. Korruptsiyaning davlat boshqaruvida yuz berishi esa bu oʻsha davlatning bora-bora intihosi va fojiasiga aylanishi turgan gap. Yuqori turuvchi davlat organlarida korruptsiya va tanish-bilishchilikning boʻlishi davlat rivojlanishi va jahon hamjamiyatida oʻzining munosib oʻrnini egallashiga asosiy gʻov hisoblanadi. Qars ikki qoʻldan chiqadi deydi dono xalqimiz. Ayrim fuqarolar tibbiyot, taʼlim va boshqa shu kabi sohalarda mansabdor shaxs yoki xodim oʻz vazifasini amalga oshirayotgan boʻlsa ham qoʻshtirnoq ichida “rahmat” aytishga oʻrganib qolishgan va mansabdorlarni ham shunga oʻrgatib qoʻygan, desak ayni haqiqat boʻladi.

Korruptsiya oʻzi nima degani?



Korrupsiya deganda, mansabdor shaxsning o'ziga ishonib topshirilgan mansab vakolatini boyish, moddiy manfaat ko'rish maqsadida suiiste'mol qilishi tushuniladi. Korrupsiya so'zi lotinchadan tarjima qilinganda "aynish", "poraga sotilish" kabi ma'nolarni anglatadi. Korrupsiya jinoyatida shuni nazarda tutish lozimki, bir tomonda albatta davlatning vakolatli mansabdor shaxsi bo'lishi kerak. Aynan, mansabdor shaxs o'zining vakolatidan pora beruvchining bergan puli evaziga uning yoki u ko'rsatgan shaxs manfaati uchun qonunga xilof ravishda foydalanadi. Korrupsiyaga qarshi kurash sohasining huquqiy asosi nimada? O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurash borasida bir qancha qonun hujjatlari mavjud. Bu qonun hujjatlari ichida korrupsiyaga qarshi kurash sohasiga rahbariy qonun hujjati 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan 419-sonli "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hisoblanadi. Qonun 34-moddadan iborat bo'lib, ushbu Qonunda ilk bora korrupsiya, manfaatlar to'qnashuvi atamalariga, korrupsiyaga qarshi kurashning prinsiplari, korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlar va ularning vazifalariga batafsil to'xtalib o'tilgan.

"Favqulodda holat"

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2025 yil 26 dekabr kuni Oliy majlis va O'zbekiston xalqiga qilgan murojaatnomasida quyidagi fikrlarni bildirib o'tdi:

"Korrupsiya - davlat tarqqiyotiga to'siq bo'ladigan, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradigan, jamiyatda ishonch muhitini zaiflashtiradigan eng jiddiy tahdid. Korrupsiyaga yo'l qo'yish esa islohotlarimizga xiyonatdir! Bu illatga qarshi kurashish bo'yicha 2026-yilda "favqulodda holat" e'lon qilamiz".

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi

"Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi"ning tashkil etilganligi bo'ldi. Agentlik O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga asosan, 2020-yilning 29-iyunida tashkil etilgan. Agentlikning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- mamlakatda korrupsiya holatini tizimli tahlil qilishni ta'minlash;



- korrupsiyaga oid xavf-xatarlar yuqori bo'lgan sohalarni aniqlash;
- korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni amalga oshirish;
- fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish orqali jamiyatda korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga murossasiz munosabatni shakllantirish;
- vazirlik va idoralarning korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqalar.

Agentlik yaxshi ish faoliyatini olib bormayapti, o'zi nima uchun tashkil etildi, qabilidagi savollar xalq orasida bot-bot takrorlanib turadi. Ko'pchilik bunday agentlik bor ekanligini ham bilmaydi. Ammo, agentlik bosqichma-bosqich va tizimli ravishda korrupsiyaviy jinoyatlarga qarshi kurashib kelmoqda va shu kungacha ko'plab korrupsiyaviy holatlarga chek qo'yishga muvofaq bo'ldi.

Korrupsiyaga qarshi kurashning xorijiy tajriba implementatsiyasi

Korrupsiyaga qarshi kurashning muvoffaqiyatli yo'lini bosib o'tgan xorij davlati sifatida Singapurni keltirishimiz mumkin. Singapur korrupsiyaga qarshi kurashishda quyidagi islohotlarni amalga oshirgan:

- korrupsiyaga qarshi kurash choralari keskinlashtirilgan;
- sud tizimi mustaqilligi oshirilgan;
- sudyalarning maoshi sezilarli oshirilgan;
- davlat organlarida xodimlar soni keskin qisqartirilgan va hokazo.

Singapurning bu darajada rivojlanishining bosh sababchisi mamlakat bosh vaziri Li Kuan Yu hisoblanadi. Uning topqirligi, qattiqqo'l siyosati va donoligi sabab bugun Singapur davlati eng korrupsiya kam va rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurash va jazo Yuqorida ta'kidlanganidek, O'zbekiston korrupsiyaga qarshi ayovsiz urush ochgan. Bu yo'lda fuqarolar ham mansabdor shaxslar ham birdek javobgarlikka tortilishi, mansabdorlarning suvdan quruq chiqib ketmasligi ko'zda tutilgan.



Korrupsiyaga qarshi kurashni “Korrupsiya qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasiga asosan quyidagi davlat organlari amalga oshiradi:

- O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;
- O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.

Yuqoridagi davlat organlari korrupsiyaga qarshi kurashni “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun va o‘zlarining lokal hujjatlariga asosan amalga oshirishadi. Korrupsiyaga qarshi kurashni amalga oshirishda hech bir davlat organi qonunda belgilangan doiradan chetga chiqishi mumkin emas.

Korrupsiya jinoyatiga tayinlanadigan jazo tushunchasiga kelsak, Jinoyat kodeksining 210-moddasida pora olish, 211-moddasida esa pora berish jinoyatiga tayinlanadigan jinoiy jazolar keltirib o‘tilgan. Ahamiyatli jihati shundaki, so‘nggi islohotlardan so‘ng pora beruvchining ham jinoiy maqomi pora oluvchiniki bilan tenglashtirildi. Ya’ni, har ikkala jinoyatning maksimal miqdoridagi jinoiy jazoning muddati o‘n yildan o‘n besh yilgacha hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, pora beruvchining qilmishi ham jamiyat va davlat uchun xuddi poraxo‘rning qilmishi kabi xavfli hisoblanadi.

Korrupsiya qarshi kurash sohasini rivojlantirishga oid takliflar

Yuqoridagi barcha holatlarni ko‘rib chiqib korrupsiyaga qarshi kurash sohasini yanada rivojlantirishga oid quyidagi takliflarni ilgari surishimiz mumkin:

- korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun jinoiy jazoni yanada kuchaytirish;
- aholi orasida korrupsiyaga qarshi murosasizlik ruhiyatini shakllantirish;
- qog‘ozbozlikni kamaytirish choralari ko‘rish, zero hujjatbozlikning ko‘pligi oqibatida fuqarolar ishini tez bitirish maqsadida pora berishga ham majbur bo‘lib qolishmoqda;



- pora olish jinoyati bilan qo'lga tushgan mansabdorni bu ishdan butunlay olib tashlash va uni kelajakda rahbarlik lavozimlarida ishlashdan chetlashtirish;
- pora berish jinoyati bilan qo'lga tushgan fuqarolarni bu jinoyatga qo'l urishiga nima majbur qilganini aniqlash va shu faktor asosida ularga jinoiy jazo tayinlash;
- mansabdor shaxslarning mol-mulkini deklaratsiyadan o'tkazish va asossiz boyib ketishini oldini olish, nazorat qilish mexanizmini yaratish;
- mansabdorlarning xizmat xonalariga kuzatuv moslamalari o'rnatish va tasvirlarni onlayn rejimda translyatsiya qilish;
- korrupsiya jinoyati bilan shug'ullangan mansabdorlarni mol-mulkini davlat hisobiga o'tkazish va ularning nomini ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, korrupsiyaga qarshi kurashga faqatgina yuqorida sanab o'tilgan davlat organlarigina emas, balki barchamiz ma'sulmiz. Barchamiz korrupsiyaning davlat va jamiyat rivojlanishiga naqadar katta g'ov ekanligini anglab yetishimiz va unga qarshi kurashishimiz lozim.

Shuni tushunib yetishimiz lozimki, mansabdor shaxs o'z-o'zidan poraxo'r bo'lib qolmaydi, uni poraxo'rlikka o'rgatayotgan o'zimiz hisoblanamiz. Pora berib o'zimizning ishimizni tez bitirmoqdamiz deb o'ylaymiz, ammo bu orqali o'zimiz o'tirgan daraxtni shoxini o'zimiz arralayotganimizni tushunib yetmayapmiz. Har bir bergan poramiz orqali davlatimizni necha yilga orqaga tortayotganimiz va korrupsiya botqog'iga botirayotganimizni tushunib yetishimiz darkor.

Xulosa o'rnida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning korrupsiya xususida aytgan quyidagi jumalari o'rinli:

“Afsuski, jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak”.



REFERENCES

1. “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonun.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni .
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025 yil 5 mart kuni korrupsiyaning oldini olish bo'yicha ishlar natijadorligini va kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishdagi nutqi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
5. Khasanovna, A. A., Sharafitdinovna, K. K., & Sharafitdinovna, K. N. (2022). THE ROLE OF COMMUNICATION CULTURE IN THE FIELD OF CRIME PREVENTION AND PUBLIC SAFETY. The American Journal of Political Science Law and Criminology, 4(02), 31-37.
8. Jaxongir o‘g‘li, N. J. (2022). UYUSHGAN JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHNING UMUMIY MASALALARI. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 2(4), 125-131.
9. Aripova, A. K., & Khodjayeva, K. S. (2020). The ideal appearance of a modern teacher. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 1816-1821.
10. Khasanovna, A. A. (2021). The Live Word Is An Important Tool That Constitutes The Content Essence Of The Oratory Art. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(02), 417-434.